



## **XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I**

2024 - yil 2 - fevral

VI-86-6-10-0-K/24

Toshkent viloyati hokimiligi

### **Ichimlik suvi va oqava xizmatlari tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqava suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6074-sonli farmoni va 2022-yil 2-avgustdagi “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Toshkent viloyati shahar va tumanlarida ichimlik va oqava suv tizimlarini qurish va rekonstruksiya qilish (3-bosqich)” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 341-sonli qarori 4-ilovasi 5.11-bandiga muvofiq, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “To‘qberdi” xususiy korxonasiga 2023-yil 6-sentabrda berilgan T-11-01/03-3651-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 15-sentabrdagi 01-20/27-08-38/1737-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Toshkent suv ta’minoti” MChJga 2023-yil 7-dekabrda berilgan H-11-01/02-5204-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 7-dekabrda 01-20/27-06-38/2309-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Chimgan-Chorbog‘ suv ta’minoti” MChJga 2023-yil 7-dekabrda berilgan H-11-01/02-5205-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 7-dekabrda 01-20/27-06-38/2310-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Musaffo obihayot” MChJga 2023-yil 29-noyabrda berilgan H-11-01/02-5024-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 30-noyabrdagi 01-20/27-06-38/2251-sonli xati o‘rganib chiqilib, viloyatda ichimlik suvi va oqava suv xizmatlari tariflarini tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi:

## QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqava suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6074-sonli farmoni va 2022-yil 2-avgustdagi “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Toshkent viloyati shahar va tumanlarida ichimlik va oqava suv tizimlarini qurish va rekonstruksiya qilish (3-bosqich)” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 341-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “To‘qberdi” xususiy korxonasiga 2023-yil 6-sentabrda berilgan T-11-01/03-3651-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 15-sentabrdagi 0-20/27-08-38/1737-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Toshkent suv ta’minoti” MChJga 2023-yil 7-dekabrda berilgan H-11-01/02-5204-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 7-dekabrda 01-20/27-06-38/2309-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Chimgan-Chorbog‘ suv ta’minoti” MChJga 2023-yil 7-dekabrda berilgan H-11-01/02-5205-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 7-dekabrda 01-20/27-06-38/2310-sonli xati, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Musaffo obi-hayot” MChJga 2023-yil 29-noyabrda berilgan H-11-01/02-5024-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 30-noyabrdagi 01-20/27-06-38/2251-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin;

2.1. “To‘qberdi” xususiy korxonasi, “Toshkent suv ta’minoti” MChJ, “Chimgan-chorvog‘” MChJ, “Musaffo obi xayot” MChJlar tomonidan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqava suv xizmatlari tariflari taqdim etilgan hulosalar asosida **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi (Z.Eraliyeva), “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalari (G.Sheraliyev) iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqava suv xizmatlarining yangilangan tariflari 2024-yil 20- fevraldan boshlab qo‘llanishi yuzasidan ommoviy axborot vositalarida keng yoritib borishi tavsiya etilsin.

4. “To‘qberdi” xususiy korxonasi, “Toshkent suv ta’minoti” MChJ, “Chimgan-chorvog‘” MChJ, “Musaffo obi hayot” MChJ, shahar va tuman hokimliklari tomonidan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqava suv

xizmatlarining yangilangan tariflari 2024-yil

20- fevraldan boshlab qo'llanishi yuzasidan har bir mahallada targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

5. "To'qberdi" xususiy korxonasi, "Toshkent suv ta'minoti" MChJ, "Chimgan-chorvog'" MChJ, "Musaffo obi hayot" MChJ belgilangan narxlarni muddatidan oldin qo'llanilishiga hamda asossiz oshib ketmasligi uchun shaxsan javobgar etib belgilansin.

6. Mazkur qaror 2024-yil 20- fevraldan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining "Sanoat, transport, qurilish, kommunal masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Axmadali Xudayberganov hamda viloyat hokimining o'rinbosari Sh.Maxmudov zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari viloyat  
kengashi raisi**



**Z.Mirzayev**

Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining  
2024-yil 2-fevraldagi  
VI-86-6-10-0-K/24-son qaroriga  
1-ilova

Viloyat suv ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari uchun amaldagi  
va taklif etilayotgan narxlar (tariflar)

| T/r                                          | Xizmat turi                      | Amaldagi<br>narx (tarif) (so‘m) | Amaldagi<br>narx (tarif) (so‘m)<br>(QQS bilan) | Taklif etilayotgan<br>narx (tarif) (so‘m) | Taklif etilayotgan<br>narx (tarif) (so‘m)<br>(QQS bilan) |
|----------------------------------------------|----------------------------------|---------------------------------|------------------------------------------------|-------------------------------------------|----------------------------------------------------------|
| <b>“Toshkent suv ta’minoti” MChJ</b>         |                                  |                                 |                                                |                                           |                                                          |
| <b>Ichimlik suv yetkazib berish narxi</b>    |                                  |                                 |                                                |                                           |                                                          |
| 1                                            | Aholi uchun 1 m3                 | 1700                            |                                                | 2000                                      |                                                          |
| 2                                            | Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3 | 7000                            | 7840                                           | 9000                                      | 10080                                                    |
| 3                                            | Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3 | 7000                            | 7840                                           | 9000                                      | 10080                                                    |
| <b>Oqava suv xizmati narxi</b>               |                                  |                                 |                                                |                                           |                                                          |
| 4                                            | Aholi uchun 1 m3                 | 850                             |                                                | 1000                                      |                                                          |
| 5                                            | Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3 | 1850                            | 2027                                           | 2000                                      | 2240                                                     |
| 6                                            | Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3 | 1850                            | 2027                                           | 2000                                      | 2240                                                     |
| <b>“Chimgan-Chorbog‘ suv ta’minoti” MChJ</b> |                                  |                                 |                                                |                                           |                                                          |
| <b>Ichimlik suv yetkazib berish narxi</b>    |                                  |                                 |                                                |                                           |                                                          |
| 1                                            | Aholi uchun 1 m3                 | 1050                            |                                                | 1100                                      |                                                          |
| 2                                            | Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3 | 1100                            | 1232                                           | 1300                                      | 1456                                                     |

|                                           |                                         |      |      |      |      |
|-------------------------------------------|-----------------------------------------|------|------|------|------|
| 3                                         | Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3        | 4000 | 4480 | 4600 | 5152 |
| <b>Oqava suv xizmati narxi</b>            |                                         |      |      |      |      |
| 4                                         | Aholi uchun 1 m3                        | 300  |      | 300  |      |
| 5                                         | Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3        | 350  | 392  | 400  | 448  |
| 6                                         | Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3        | 2800 | 3136 | 3100 | 3472 |
| <b>“Musaffo obi-hayot” MChJ</b>           |                                         |      |      |      |      |
| <b>Ichimlik suv yetkazib berish narxi</b> |                                         |      |      |      |      |
| 1                                         | Aholi uchun 1 m3                        | 600  |      | 1500 |      |
| 2                                         | Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3        | 1000 | 1120 | 1700 | 1904 |
| 3                                         | Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3        | 3500 | 3920 | 5800 | 6496 |
| 4                                         | Boshqa ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3 | 600  | 672  | 1500 | 1680 |
| <b>Oqava suv xizmati narxi</b>            |                                         |      |      |      |      |
| 5                                         | Aholi uchun 1 m3                        | 400  |      | 1000 |      |
| 6                                         | Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3        | 500  | 560  | 1150 | 1288 |
| 7                                         | Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3        | 1100 | 1232 | 1900 | 2128 |
| 8                                         | Boshqa ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3 | 400  | 448  | 1000 | 1120 |
| <b>“To‘qberdi” xususiy korxonasi</b>      |                                         |      |      |      |      |
| <b>Ichimlik suv yetkazib berish narxi</b> |                                         |      |      |      |      |
| 1                                         | Aholi uchun 1 m3                        | 80   |      | 500  |      |
| 2                                         | Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3        | 350  |      | 2000 |      |
| 3                                         | Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3        | 410  |      | 2000 |      |
| <b>Oqava suv xizmati narxi</b>            |                                         |      |      |      |      |

|   |                                  |  |  |  |  |
|---|----------------------------------|--|--|--|--|
| 4 | Aholi uchun 1 m3                 |  |  |  |  |
| 5 | Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3 |  |  |  |  |
| 6 | Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3 |  |  |  |  |